

O‘ZBEK TILIDA MAZA-TA’M BILDIRUVCHI SIFATLAR ETIMOLOGIYASI

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich

*talabasi **Yusufova Nilufar Yunus qizi***

Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası

*assistenti **Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li***

Annotatsiya. O‘zbek tilida har bir so‘zning etimologiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada o‘zbek tilidagi maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar ya‘ni taom, ichimlik yoki boshqa narsalarning ta‘mini bildiruvchi sifatlarning kelib chiqishi va tarixiy tuzilishlari, sifatlarning leksik ma‘nolari haqida tahlillar mavjud. Unda “totli”, “achchiq”, “chuchuk”, “chuchmal”, “sho‘r”, “bemaza” kabi sifatlar etimologiyasi izohlanadi.

Kalit so‘zlar. Maza-ta‘m sifatlari, etimologiya, leksik ma‘no, sifat so‘z turkumi, tarixiy tilshunoslik, leksikologiya.

Sho‘r – “tarkibidagi tuz me‘yordan ortiq” ma‘nosini anglatadi. Bu sifatdan o‘zbek tilida “sho‘rla” fe‘li yasalgan [3: 268].

O‘zbek tilida “sho‘r” degan sifat, asosan, yer yoki suvning holatini ifodalashda, taom va ta‘mni ifodalashda ishlatiladi.

Masalan:

Sho‘r yerda dehqonchilik qilish qiyin.

Bu taom juda sho‘r ekan.

Chuchuk – “ta‘mi shirin”. Misol: “oshga chuchuk behi emas, nordon behi solinadi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu sifat asli “shirin bo‘l” ma‘nosini anglatuvchi “suchi” fe‘lidani -g qo‘shimchasi bilan yasalgan, keyinroq so‘z oxiridagi -g undoshi -k undoshiga, ikkinchi bo‘g‘in boshidagi ch undoshining ta‘siri bilan so‘z boshlanishidagi s undoshi ch undoshiga, ikkinchi bo‘g‘indagi i unlisi u unlisiga almashgan, so‘ngra u unlilarining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: “suchi + g = suchig = suchuk = chuchuk” [1: 440].

“Chuchuk” sifati 2 xil ma‘noda ishlatilishi mumkin. O‘z ma‘nosida va ko‘chma ma‘noda:

Piyolada chuchuk suv bor (o‘z ma‘nosida).

O‘ktam ota chuchuk gapirdi (ko‘chma ma‘noda).

Bemaza. Bu sifat “yo‘q” ma‘nosini anglatuvchi tojikcha be- old qo‘shimchasini asli “nordon-shirin ta‘m” ma‘nosini anglatadigan arabcha maza otiga qo‘shib hosil qilingan. Bu arabcha ot fors tili lug‘atida (mazz) shaklida keltirilib, “nordon-shirin”

ma'nosini, tojik tili lug'atida esa, maza shaklida keltirilib, "ta'm" ma'nosini anglatishi aytilgan. "Bemaza" sifati o'zbek tiliga tojik tilidan olingan; "ta'mi yoqimsiz" ma'nosini anglatadi. Bemaza sifatidan o'zbek tilida -garchilik qo'shimchasi bilan "bemazagarchilik" oti yasalgan bo'lib, "bo'lmag'ur xatti-harakat" ma'nosini anglatadi [3: 283].

"Bemaza" so'zi adabiy va og'zaki nutqda keng qo'llaniladi.

Masalan:

Shu gaping bemaza bo'ldi.

Chuchmal – "tuzi yoki shirasi me'yoriga yetmagan, bemaza".

Masalan:

Shakar ozroq solingan murabbo chuchmal bo'lib qolibdi.

Bu sifat asli "shirin bo'l" ma'nosini anglatuvchi "suchi fe'lining kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -ma qo'shimchasini olgan shaklidan -l qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik s undoshi ch undoshiga almashgan, ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan, u unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: (suchi + ma = suchima) + L = suchimal, chuchimal, chuchmal [1: 440].

"Chuchmal" so'zi ko'proq adabiy yoki og'zaki nutqda, ba'zida kinoya yoki hazil ma'nolarida ishlatiladi.

Masalan:

Film juda chuchmal chiqibdi (qiziq emas).

Totli – "ta'mi yaxshi", "mazali".

Masalan:

Moling zotli bo'lsa, yemishing totli bo'lar (maqol).

Bu sifat qadimgi turkiy tilda "ta'm-ma'za ma'nosini anglatuvchi "tat" oti va "lig" qo'shimchasi bilan yasalgan. O'zbek tilida so'z oxiridagi g' undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan, i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan. Tat + lig', tatli, totli [1: 351].

"Totli" so'zi hozirgi kunda juda kam ishlatiladi. U, asosan, adabiy tilda yoki shevada ishlatiladi.

Onam har doim totli taomlar pishiradi.

Achchiq – "tilni lobullatadigan, achitadigan".

Masalan:

Ukam achchiq qalampirni chaynab yedi.

Bu so'z qadimgi turkiy tildadi achi fe'lidan -q qo'shimchasi bilan yasalgan; o'sha davrlardayoq "a:" unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan. O'zbek tilida "ch" undoshi qatlangan, i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: achi + q = achiq, achchiq [1: 36].

Achchiq so'zi o'zbek tilida juda faol ishlatiladi va keng qo'llaniladi. Bu so'z nutqda ham yozma shaklda ham faoldir.

Dadam achchiq ovqatni yoqtirmaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi maza-ta’ m bildiruvchi sifatlar nafaqat lingvistik, balki tarixiy jihatdan ham muhim ahamiyatga egadir. Ularning etimologiyasida sifatlarning yasalishi, lug‘aviy ma’nosi, qadimgi turkiy, forsiy, arabiy tillar bilan o‘zaro aloqalarni yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 1-tom, Toshkent, Universitet, 2000, 600 b.
2. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 2-tom, Toshkent, Universitet, 20009, 600 b.
3. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 3-tom, Toshkent, Universitet, 20009, 283 b.
4. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar?start=6>